JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SADIKOVA SAODAT MINOVAROVNA

INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA BADIIY TARJIMA ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI (Teodor Drayzer asarlari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

UO‘K: 811.111’373.7+811.512.133’373.7:82.091

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological sciences

Sadikova Saodat Minovarovna
Inglizcha va o‘zbekcha badiiy tarjima asarlarda frazeologik birliklarning ifodalanishi (Teodor Drayzer asarlari misolida) 3

Sadikova Saodat Minovarovna
Representation of phraseological units in English-Uzbek literary translation (Based on Theodore Dreiser’s novels) 23

Садикова Саодат Миноваровна
Выражение фразеологических единиц в английских и узбекских художественных переводах (на примере произведений Теодора Драйзера) .. 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SADIKOVA SAODAT MINOVAROVNA

INGLIZCHA VA O‘ZBEKCHA BADIIY TARJIMA ASARLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI (Teodor Drayzer asarlari misolida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Jizzax – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fil1457 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.jdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Mamatov Abdugafur Eshonkulovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ikromxonova Firuza Ikromovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Nizomova Mohinur Baratboyevna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil “_____” _____ kuni soat _____ da Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.01/2025.27.12.Fil.06.02 raqamli Ilmiy kengash yig‘ilishida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh. Rashidov ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+998) 72 226-13-57, (+998) 72 226-21-73; faks: (+998) 72 226-46-56; e-mail: jdpu.info@umail.uz. Jizzax davlat pedagogika universiteti, bosh bino, 2-qavat, kichik majlislar zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro‘yxat raqami _____). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh. Rashidov ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+998) 72 226-13-57, (+998) 72 226-21-73.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.A. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

X.L. Maxammadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R. Ermatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tillar xalq madaniyati, tarixi, ma’naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri va urf-odatlari bilan uzviy bog‘liq holda, ya’ni antropotsentrik paradigma asosida tahlil va talqin etilmoqda. Yangi ilmiy yo‘nalishlar – kognitiv tilshunoslik, pragmatik tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya va etnolingvistika kabi sohalarda zalvorli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ingliz va o‘zbek tillarining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini, ulardagi frazeologik birliklarning variantlarda namoyon bo‘lishi, semantik va madaniy jihatdan qanday farqlanishini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida har bir xalqning milliy-mental va mintaqaviy xususiyatlari, til va madaniyat munosabatini tadqiq etuvchi lingvokulturologiya jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biridir. Til birliklariga, xususan, frazeologik birliklarga lingvokulturologik nuqtayi nazardan yondashish ularning mohiyatini to‘laroq ochish imkonini bermoqda. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi o‘rni va ularning tarjimada adekvat aks ettirilishini ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy tahlil etish tilshunoslik va tarjimashunoslik ilmida dolzarb muammolardan biridir.

Yangi O‘zbekistonda ilm-fanning rivojiga, xususan, qardosh bo‘lmagan tillarning chog‘ishtirma tadqiqiga, tarjimashunoslik ilmining yangi sifat bosqichiga o‘tishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”[1] tilshunoslik sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy qilish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Bu esa tarjimashunoslik doirasida muallif hamda tarjimon uslublarini qiyoslash, yozuvchi uslubining tarjima matnida qanday namoyon bo‘lishini aniqlash, ingliz badiiy asarlaridagi frazeologik birliklarning tarjimada aks ettirilishini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. // Xalq so‘zi, 09.10.2019. –№ 209 (7439).

“O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda qator boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning nazariy va amaliy asoslarini o‘rganish masalasi keng ilmiy qiziqish uyg‘otib kelmoqda. Ingliz tilshunosligida bu yo‘nalishda olib borilgan fundamental tadqiqotlar frazeologiyaning shakllanishi, frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, sintaktik xususiyatlari va ularning kognitiv mohiyatini yoritishga qaratilgan. Ch.Balli frazeologik birliklarni semantik hodisa sifatida izohlagan[2] bo‘lsa, G.Anderson ularning tipologik va etnolingvistik xususiyatlarini ochib bergan[3]. L.Smit ingliz frazeologiyasining boshqa tillar bilan o‘zaro ta’sirini tahlil qilgan[4], S.Hanston va J.Sinkler esa korpus lingvistikasida frazeologik birliklarni tadqiq etish metodologiyasini ishlab chiqqan[5]. L.Blumfild va Z.Harris frazeologik strukturalarning sintaktik tahliliga[6] e’tibor qaratgan, N.Chomskiy transformatsion grammatika asosida idiomatik birliklarning struktur xususiyatlarini ochib bergan[7]. Kognitiv yondashuv doirasida R.Jekendoff, Ch.Fillmor, G.Lakoff, M.Jonson frazeologizmlarni inson tafakkurining konseptual modeli sifatida o‘rganib, ularning mental asoslarini aniqlagan[8]. D.Payzer Teodor Drayzer romanlarida metaforik ifodalarning naturalistik kontekstini tahlil qilgan[9], R.R.Mulligan esa muallifning ritorik metaforalar tizimini o‘rgangan[10].

Frazeologiya nazariyasining shakllanishida rus tilshunoslik maktabining hissasi alohida ahamiyatga ega. V.Vinogradov, N.Amasova, A.Kunin,

---

[2] Bally Charles.Traité de stylistique française, Creative Media Partners, LLC, 2019. – 280 p.

[3] Anderson Gordon Duglas Smit Language Hotspots and the Study of Linguistic Diversity. Language Documentation & Conservation, 2007. 1 – 14 p.

[4] Smith Logan Pearsall: Words and Idioms: Studies in the English Language, Constable & Co. Ltd., London 1925. – 250 p.

[5] Susan Hunston, co-authored with Gill Francis, John Benjamins: Pattern Grammar: A Corpus–Driven Approach to the Lexical Grammar of English, Amsterdam, 2000. – 300 p.; John Sinclair: Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press. 1991, – 234 p.

[6] Leonard Bloomfield. Language. New York: Henry Holt and Company, 1933. – 600 p.; Zellig Harris: Methods in Structural Linguistics. Chicago: University of Chicago Press, 1951. – 384 p.

[7] Noam Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax, Idioms discussed in the context of syntactic irregularities, Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.

[8] Ray Jackendoff. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution, Covers fixed expressions within cognitive grammar. Oxford University Press, 2002. – 497 p.; Fillmore C.J., Kay P. & O‘Connor M. C. Regularity and idiomaticity in grammatical constructions: The case of let alone. Language, Linguistic Society of America. 1988. 501 – 538 p.; George Lakoff & Mark Johnson. Metaphors We Live By, University of Chicago Press. 1980 – 256 p.

[9] Pizer, Donald. American Literary Naturalism: The Example of Dreiser. Studies in American Fiction, 1977. 123 – 138 p.

[10] Mulligan R. R. The World Made Real: Theodore Dreiser’s Rhetoric of Realism: PhD Dissertation. – University of Oregon, 1994. – 431 p.

V.Makiyenko, I.Chernisheva, N.Shanskiy, M.Tagiyev, shuningdek, N.Alefirenko, V.Teliya tadqiqotlarida frazeologik birliklarning semantik, stilistik va madaniy xususiyatlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan[11]. Ayniqsa, A.Kuninning frazeologizmlar turlanishi va tarjimada ularning ekvivalentlik darajasini belgilash bo‘yicha ishlari sohada nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklarning leksik-semantik, leksik-grammatik va stilistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov frazeologizmlarning struktur-semantik tabiati va ularning til tizimidagi o‘rnini aniqlaganlar[12]. Frazemalarning badiiy tarjimadagi mosligini o‘rganishda N.Mavlonova, Sh.Abdullayev, N.O‘rmonova, D.Xoshimova, M.Vafoyevalarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi[13]. M.Sodiqova va M.Abdurahimov o‘zbek va rus tillari frazeologik tizimlarini qiyosiy tahlil qilish asosida ikki tilli frazeologik lug‘atlar[14] yaratgan bo‘lsa, J.Sharipov va G‘.Salomovlar tarjimashunoslik nazariyasi bo‘yicha amalga oshirgan izlanishlarida frazeologizmlarning badiiy tarjimada ekvivalent uzatilishi masalasiga e’tibor qaratganlar[15].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Raqamli ta’lim muhitida zamonaviy lingvistika, adabiyotshunoslik, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning tarjimada ifodalanish usullarini lingvistik va lingvokulturologik aspektlarda ochib berishdan iborat.

---

[11] Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. Лексикология и лексикография. – М: Издание Труд, 1977. – 267 с.; Амасова Н.И. Основы английской фразеологии. – Л, 1983.–227 с.; Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М, 1972.–288 с. Мокиенко В.М. Славянская фразеология. –М, 1970.–200 с.; Шанский Н.М. фразеология современного русского языка. – М: Высшая школа 1989.–315 с.; Тагиев М.Т. Глагольная фразеология современного русского языка. – Баку: Маариф, 1966.–150 с. Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филология науки., 2002. №5. 72–81 с; Телия В.Н. Культурно – национальные коннотации фразеологизмов (от мировидения к миропониманию). // Славянское языкознание. XI Международный съезд славистов. – М: Наука, 1993. – 314 с.

[12] Rahmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya // Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T, 1992. 49 – 186 с.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал - услубий хусусиятлари: Филол.фанлари д–ри... дисс автореф.–Т, 1993. – Б. 46 – 145.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореферат. – Т, 2000.–56 б.

[13] Mavlonova N.A. Ingliz, rus va o‘zbek tillararo frazeologik muvofiqliklar. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2022. – 50 b; O‘rmonova N. Tarjimada tarixiy arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. –T, 2003.; Xoshimova D. “Boburnoma” matndagi tasviriy vositalarning ingliz tiliga tarjimalari tadqiqi. Falsafa dok–ri (PhD) diss. – T, 2018. – B. 22.; Vafoeva M. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktur–semantik tahlili. Filol. fan. nomz…diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B. 22.

[14] Содиқова, М. Краткий узбекско–русский словар устойчивых выражений: Қисқача русча–ўзбекча барқарор иборалар луғати. – Тошкент, 1994. – 248 б; Абдурахимов М. Краткий узбекско–русский фразеологический словар.–Т: Ўқитувчи, 1976. – 216 с.

[15] Salomov G‘. Til va tarjima (Badiiy tarjimaning umumfilologik va ba’zi lingvistik masalalari). – T: Fan, 1966. – 237 – 340 b; Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. – T: Fan, 1972. – 256 b.

Tadqiqotning vazifalari:

frazeologik birliklarning badiiy tarjimadagi nazariy va metodologik asoslarini aniqlash, ularning funksional, grammatik, semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilish;

Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asari materiallari asosida frazeologik birliklarning tarjimada komponent variantdorligi, leksik-sinonimik almashtirish va strukturaviy moslashuv mexanizmlarini aniqlash hamda ularning badiiy kontekstdagi funksional-pragmatik rolini ochib berish;

frazeologik birliklarning tarjimada mazmuniy ekvivalentlik va madaniy adaptatsiya jarayonlarini frazema-frazema, frazema-erkin birikma, frazema-leksik birlik modellariga tayangan holda tahlil qilish;

tarjima jarayonida frazeologik birliklarning noadekvat talqini natijasida yuzaga keladigan semantik deformatsiya va mazmuniy nomuvofiqlik holatlarini tasniflash, ularning lingvokulturologik va pragmatik sabablarini aniqlash hamda tarjima sifatini baholash mezonlarini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Teodor Drayzerning “Sister Carrie” asari hamda uning o‘zbekcha “Baxtiqaro Kerri” badiiy tarjimasidagi frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy tarjimalarda frazeologik birliklarning ifodalanish xususiyatlari, ularning grammatik, leksik, semantik hamda lingvokulturologik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy, funksional-semantik, qiyosiy va qiyosiy-tarixiy, tasniflash va chog‘ishtirish, lingvokulturologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning badiiy tarjimada yuz beradigan semantik, grammatik va funksional transformatsiyalari Teodor Drayzer asarlari asosida qiyosiy-tahliliy hamda lingvokulturologik yondashuvlar vositasida ochib berilib, “took control – tizginini qo‘lga oldi” kabi ekvivalentlik, “he was in his element – juda shodu xandon ko‘rinardi” kabi noekvivalentlik aniqlangan;

frazeologik birliklarning variativligi va milliy-madaniy kodlari badiiy tarjimada kalka, ekvivalent, muqobil, tasviriy hamda obrazlashtirilgan tarjima strategiyalari orqali namoyon bo‘lishi lingvokulturologik moslashuv mexanizmlari asosida ochib berilgan;

badiiy tarjimada mazmuniy ekvivalentlik va madaniy adaptatsiyaning frazema – frazema, frazema – erkin birikma hamda frazema – leksik birlik modellari orqali amalga oshishi aniqlanib, ushbu modellarning tarjimaning funksional-pragmatik samaradorligini belgilashi asoslangan;

frazeologik birliklarning noadekvat talqini natijasida yuzaga keladigan semantik deformatsiya va mazmuniy nomuvofiqlik, jumladan, frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari pragmatik va qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, ular badiiy tarjima sifatini baholovchi diagnostik mezon ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy tarjima matnlarida frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, har ikki xalqning

mentaliteti, turmush tarzi va madaniy qadriyatlariga asoslangan umumiy hamda farqli frazeologik tizim aniqlangan;

ikki tildagi frazeologik tizimlar o‘rtasidagi mushtaraklik va milliy o‘ziga xosliklarning tarjimada ifodalanish usullari amaliy dalillar asosida tahlil qilinib, ularning lingvokulturologik talqini ishlab chiqilgan;

tarjima jarayonida frazeologik birliklarda kuzatiladigan semantik va strukturaviy o‘zgarishlar, leksik transformatsiyalar hamda obyekt almashtirish holatlari aniqlanib, ularning madaniy va lingvokulturologik omillar bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan ilmiy-metodik yondashuvlarning kompleksligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos ravishda tanlangan ilmiy-nazariy asoslarning zamonaviy lingvistika hamda tarjimashunoslik yo‘nalishlari talablari asosida shakllantirilgani, ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlardan olingan keng qamrovli empirik materialning tizimli va chuqur tahlili ilmiy xulosalarning asoslanganligi, tahlil jarayonida tavsifiy, bayoniy, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, funksional-semantik hamda lingvokulturologik usullardan kompleks tarzda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning semantik, funksional-lingvistik va lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali frazeologiya va tarjimashunoslik nazariyasini yangi ilmiy dalillar bilan boyitishi, ishlab chiqilgan yondashuvlar frazeologik birliklarning tarjimada adekvat ifodalanish mexanizmini ochib berishi hamda qiyosiy lingvistika, tarjimashunoslik va lingvokulturologik tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati frazeologik birliklar tarjimasiga doir uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, ikki tilli frazeologik lug‘atlar tuzishda, tarjima amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar hamda maxsus kurslar yaratishda qo‘llash imkonini berishi, ushbu ilmiy qarashlar amaliy tarjima faoliyatida frazeologik birliklarning madaniy mazmunini to‘g‘ri talqin etish va ekvivalentlikni ta’minlashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Inglizcha va o‘zbekcha badiiy tarjimalarida frazeologik birliklarning ifodalanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning badiiy tarjimada yuz beradigan semantik, grammatik va funksional transformatsiyalari Teodor Drayzer asarlari misolida o‘rganilib, tillararo mazmuniy ekvivalentlik va noekvivalentligi aniqlangan nazariy xulosalardan “Reading and Writing Practice Study Guide” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 705378-son guvohnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanmaning materiallar bilan boyitilishiga, nazariy bazasi va lingvokulturologik ma’lumotlar bilan to‘ldirilishiga erishilgan;

frazeologik birliklarning variativligi va milliy-madaniy kodlari badiiy tarjimada kalka, ekvivalent, muqobil, tasviriy hamda obrazlashtirilgan tarjima

strategiyalari orqali namoyon bo‘lishi lingvokulturologik moslashuv mexanizmlari asosida asoslangan ilmiy natijalardan Jizzax davlat pedagogika universitetida 2020–2022-yillarda bajarilgan “English Access Microscholarship” xalqaro amaliy loyihasida foydalanilgan (shifri: S-ECAHD-18-CA-0067, shartnoma raqami: PO№02002358/2025-yil 14-may №04-559). Natijada loyiha asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy materiallarning frazeologik birliklar madaniy mosligini ta’minlash yuzasidan yangi fikrlar, ma’lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

badiiy tarjimada mazmuniy ekvivalentlik va madaniy adaptatsiya jarayonlari frazema–frazema, frazema–erkin birikma hamda frazema–leksik birlik modellariga tayangan holda tadqiq etilib, mazkur modellar tarjima jarayonining funksional-pragmatik samaradorligini belgilovchi nazariy vosita sifatida asoslab berilgan ilmiy xulosalardan “Reading and Writing Practice Study Guide” o‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 705378-son guvohnomasi). Natijada o‘quv qo‘llanma tarjimadagi muammoli jihatlarini tahlil qilishga oid ilmiy materiallar bilan boyitilgan;

frazeologik birliklarning noadekvat talqini natijasida yuzaga keladigan semantik deformatsiya va mazmuniy nomuvofiqlik, jumladan, frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari pragmatik va qiyosiy tahlil asosida aniqlanib, ular badiiy tarjima sifatini baholashda diagnostik mezon sifatida dalillangan ilmiy qarashlar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon” va “Jahon adabiyoti” dasturlarining 2024–2025-yillardagi ssenariylarini ishlab chiqishda amaliy jihatdan qo‘llanilgan (“O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasi 2025-yil 20-mart 05-09-352-son). Natijada teleko‘rsatuvlarda frazeologik birliklarning badiiy va madaniy qiymatini tahlil qilishga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar integratsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta, xususan, xorijiy jurnallarda 2 ta va respublika jurnallarida 5 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad-vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy

yangiligi, amaliy natijalari, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi hamda hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Frazeologik birliklarning nazariy asoslari va badiiy matndagi o‘rni”** deb nomlanib, u uch paragrafdan iborat. *“Frazeologik birliklarning nazariy asoslari va badiiy tarjimadagi funksional ahamiyati”* deb nomlangan birinchi paragraf frazeologik birliklarning nazariy mohiyati, ularning til tizimidagi o‘rni va badiiy matndagi funksional ahamiyati tadqiq etildi. Paragraf doirasida frazeologiyaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi, frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi, ekspressiv-emotsional xususiyatlari hamda ularning badiiy matndagi tasviriy imkoniyatlari tahlil qilindi.

Nazariy tayanch sifatida frazeologiya faniga asos solgan Sh.Ballining qarashlari, shuningdek, ingliz va amerika tilshunoslik maktablari vakillari M.Beyker, H.Burger, A.Kovi, R.Jakendoff, G.Lakoff tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv yondashuvlar[16] jalb etildi. Rus tilshunosligida V.Vinogradov, A.Kunin, N.Amosova frazeologik birliklarni idiomatiklik darajasi va struktur-semantik belgilariga ko‘ra tasniflaganliklari[17] asoslab berildi. O‘zbek tilshunosligida esa Sh.Rahmatullayev, Q.Musayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov ishlarida frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmuni va stilistik xususiyatlari[18] yoritilganligi ko‘rsatildi.

Paragrafning muhim yo‘nalishlaridan biri frazeologik birliklarning badiiy tarjimada ifodalanish masalalarini tahlil qilishdan iboratdir. Bu jarayonda frazeologik birliklarning semantik, emotsional-ekspressiv va madaniy mazmunini boshqa tilda adekvat tarzda uzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimashunoslikda P.Newmark, M.Baker, S.Hervey va I.Higgins kabi olimlar[19] idiomatik va madaniy xos birliklarni tarjima qilishda funksional ekvivalent, madaniy ekvivalent, parafraza, kompensatsiya hamda kontekstual moslashtirish kabi usullarning ahamiyatini ko‘rsatganlar. Masalan, inglizcha spill the beans iborasi o‘zbekchada sirni oshkor qilmoq shaklida mazmuniy ekvivalent tarzda, to kill two birds with one stone esa bir

---

[16] Bally Ch. Traité de stylistique française. Vol. 1.–Heidelberg: Carl Winter’s Universitätsbuchhandlung, 1909. – 331 p.; Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – 4., neu bearbeitete Auflage. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2010. – 239 s.; Cowie A. P. (ed.). Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – 258 p.; Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – 304 p.; Jackendoff R. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 477 p.; Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 256 p.

[17] Виноградов В. В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М: Наука, 1977. – С. 118 – 139; Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М: Высшая школа, 1986.–336 с.; Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии. – Ленинград: Изд– во Ленинградского университета, 1963. – 208 с.

[18] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – 264 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар, 1992. – 379 с.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал–услубий хусусиятлари: филол. фан. д–ри… дисс. Автореф. – Тошкент, 1993. – 46 б.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. д – ри дисс. Автореф. – Т, 2000. – 56 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.

[19] Newmark P.A Textbook of Translation. – New York; London: Prentice Hall, 1988. – P. 81–91, 94–103; Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – P. 72–78; Hervey S., Higgins I. Thinking Translation: A Course in Translation Method: French– English. – London; New York: Routledge, 1992. – 261 p.

tosh bilan ikki qushni urmoq tarzida to‘liq ekvivalentga yaqin shaklda tarjima qilinadi.

Frazeologik birliklar badiiy matnda obrazlilik, emotsional ta’sir va madaniy konnotatsiyani ifodalovchi muhim vosita ekanligi, ularning tarjimasi esa nafaqat leksik-semantik, balki kognitiv va lingvokulturologik yondashuvni ham talab qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Ikkinchi paragraf *“Badiiy tarjimada frazeologik birliklarning komponent variativligi va transformatsiya mexanizmlari”* deb nomlanib, unda frazeologik birliklarning tarjima jarayonida komponent variativligi masalasi nazariy va amaliy jihatdan o‘rganildi. Paragrada komponent variativligi har qanday so‘z almashinuvi emas, balki frazeologik birlikning semantik yadrosi hamda stilistik-pragmatik funksiyasini saqlashga xizmat qiluvchi qonuniy transformatsion jarayon ekani asoslandi. Variativlikni yuzaga keltiruvchi omillar sifatida lingvomadaniy tafovutlar, stilistik moslik, matn pragmatikasi va tillararo lingvistik tizim farqlari ko‘rsatildi. Komponent o‘zgarishlarini variativlik sifatida baholashda semantik yadroni saqlash va frazeologik funksiyani tiklash mezonlari metodologik asos sifatida belgilandi.

Nazariy asos sifatida V.Vinogradovning frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi va tasnifiga oid qarashlari[20], M.Bakerning idiomalarni tarjima qilish strategiyalari[21], Ya.Retskerning tarjima transformatsiyalari[22] haqidagi qarashlari qo‘llanildi. O‘zbek tilshunosligida esa frazeologik birlik komponentlarining semantik faolligi, ularning tayanch va notayanch elementlar sifatida frazema ma’nosini shakllantirishdagi roli hamda badiiy matndagi ekspressiv-uslubiy imkoniyatlari Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov[23] kabi olimlarning qarashlari asosida izohlandi. Bunda tayanch komponent frazemaning asosiy semantik yadrosini belgilaydi, notayanch komponent esa obrazlilik, ekspressivlik va grammatik bog‘lanishni kuchaytiradi.

Amaliy tahlil Teodor Dreiserning “Sister Carrie” romani va uning o‘zbekcha “Baxtiqaro Kerri” tarjimasi materiallari asosida olib borildi. Tahlil jarayonida frazeologik birliklarning tarjimada leksik almashtirish, komponent kengayishi, komponent qisqarishi, metaforik almashinuv, semantik kompressiya, qayta kodlash hamda ifoda darajasining o‘zgarishi kabi shakllar orqali variativlashishi aniqlandi. Paragraf yakunida komponent variativligi badiiy tarjimada ekvivalentlikni ta’minlovchi muhim mexanizm bo‘lib, u frazeologik birlikning tashqi shaklini to‘liq saqlashga emas, balki uning mazmuni, obrazliligi va badiiy ta’sirini tarjima tilida qayta tiklashga qaratilgan jarayon ekani umumlashtirildi.

---

[20] Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М: Наука, 1977. – С. 118 – 139.

[21] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – P.72 – 78.

[22] Рецкер Я. И. Теория перевода и переводческая практика. – М: Международные отношения, 1974. – С. 145 – 160.

[23] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 5 – 25; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992. – Б. 6 – 32; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал– услубий хусусиятлари: филол. фан. д-ри…дисс. автореф. – Т, 1993. – Б. 10 – 35; Маматов А. Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: филол. фан. д– ри… дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б. 3 – 10, 30 – 48

Yuqorida keltirilgan mezonlar tarjima nazariyasida muqobillikni mazmun yaxlitligi va ta’sir sifatida tiklash haqidagi qarashlarga mos keladi. Tarjimada asosiy mazmunni saqlash va kommunikativ-pragmatik effektni tiklash badiiy tarjima sifatining muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

1.1-jadval

“Sister Carrie” romanining o‘zbekcha tarjimasida frazeologik birliklarning komponent variativligi va transformatsiya usullari.

Asliyat	Tarjima	O‘zgargan komponent	Variativlik turi	Omil	Mezon bo‘yicha baho	Izoh
could not help smiling	*lab-lunjini yig‘ishtira olmadi*	smiling ma’nosi ‘lab-lunj’ obrazi bilan kengaygan	Kengayish + ekspressiv kompensatsiya	Stilistik moslik va obrazlilik	Kulish reaksiyasi saqlangan, ekspressivlik kuchaygan	Erkin grammatik konstruksiya o‘zbekcha obrazli frazema bilan berilgan.
took control in directing the conversation	*suhbat tizginini qo‘lga oldi*	control komponenti “tizgin” metaforasi orqali ifodalangan	Metaforik modulyatsiya + milliy obraz	Lingvomadaniy moslashuv	“Boshqarish” semantik yadrosi va funksiya saqlangan	Abstrakt boshqaruv ma’nosi o‘zbekcha “tizgin” obrazi bilan qayta yaratilgan.
out of the side of her eye	*zimdan qarab qo‘yar edi*	side of her eye komponentlari ixchamlashtirilgan	Qisqarish + qayta kodlash	Kollokatsion norma va tabiiylik	‘Yashirincha qarash’ ma’nosi saqlangan	Ko‘z harakati tasviri o‘zbekchada ravish va fe’l birikmasi orqali tabiiy holda berilgan.
turned upon his heel	*gapni cho‘rt kesib, poshnasida orqasiga o‘girildi*	heel obrazi saqlanib, ‘gapni cho‘rt kesib’ komponenti qo‘shilgan	Kalka + komponent kengayishi	Kontekst va nutq keskinligi	Harakat yadrosi saqlangan, pragmatik ta’sir kuchaygan	Qo‘shimcha frazema suhbatning keskin uzilganini ochib bergan.
sank into the obscuring crowd	*olomonga singib ketsam*	obscuring alohida berilmay, ma’nosi ‘singib ketmoq’ fe’liga yuklangan	Reduksiya + semantik kompressiya	Til tizimi farqi va tabiiylik	Olomon ichida ko‘rinmay ketish ma’nosi saqlangan	Asliyatdagi aniqlovchi tarjimada fe’lning ichki ma’nosi orqali ifodalangan

Paragrafning asosiy natijalari:

1. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda dominant (semantik yadro)ni aniqlash tarjima strategiyasini tanlashning boshlang‘ich va hal qiluvchi sharti ekanligi belgilandi.

2. Frazeologik birliklarda *pragmatik ekvivalentlik* (adresat, janr, uslub, kommunikativ vazifa) ni tiklash semantik ekvivalentlikdan kam bo‘lmagan darajada muhim ekani asoslandi.

3. Frazeologik birliklar tarkibida *madaniy realiyalar* mavjud bo‘lgan hollarda *tavsifiy va izohli tarjima* usullari ma’no aniqligini ta’minlab, yo‘qotilgan ekspressivlikni qisman kompensatsiya qilishi ko‘rsatildi.

4. Komponent variativligi tarjimada adekvat natija berishi uchun u *adabiy me’yor, uslubiy moslik* va *kontekst talabi* kabi normativ cheklovlar bilan muvozanatlangan holda qo‘llanishi zarurligi umumlashtirildi.

Ikkinchi paragraf yakunida komponent variativligi badiiy tarjimada tasodifiy o‘zgarish emasligi, balki frazeologik birlikning mazmuniy adekvatligi va pragmatik mosligini ta’minlashga qaratilgan ongli, maqsadli va normativ asoslangan strategik jarayon ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

“Frazeologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlari: tarjimada ifodalanish modellari” Birinchi bobning uchinchi paragrafida ochib berilgan. Badiiy asar tarjimasida frazeologik birliklar nafaqat semantik, balki grammatik nuqtayi nazardan ham murakkablik tug‘diradi. Chunki har bir tilning o‘ziga xos grammatik tuzilmalari mavjud bo‘lib, tarjimon frazeologik birlikning semantik yadrosi, konnotativ qatlam va pragmatik funksiyasini uyg‘un holda tiklashi lozim. Mazkur paragraf frazeologik birliklarning grammatik va semantik xususiyatlari hamda ularning tarjimada ifodalanish modellari yoritiladi.

Ko‘plab olimlar grammatik variantlanish masalasiga alohida e’tibor qaratishgan:

L.Barxudarov tarjima jarayonida grammatik va leksik transformatsiyalar zarurligini asoslagan bo‘lsa[24], V.Komissarov frazeologik birliklar tarjimasida ularning obrazli, emotsional, stilistik va milliy-madaniy komponentlarini hisobga olish lozimligini ta’kidlaydi[25]. P.Newmark tarjimada kontekstual ma’noni saqlash uchun transpozitsiya, modulyatsiya, kompensatsiya, tavsifiy va funksional ekvivalent kabi usullardan foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi[26]. M.Baker esa idiomalarni tarjima qilishda o‘xshash ma’no va shaklga ega birlikdan foydalanish, o‘xshash ma’noni boshqa shakl orqali berish, parafraza qilish yoki ayrim hollarda tushirib qoldirish kabi strategiyalarni ajratadi[27]. J.Vinay va J.Darbelnet esa transpozitsiya, modulyatsiya va ekvivalentlikni tarjima jarayonida muhim transformatsion mexanizmlar sifatida belgilaydilar[28].

Mazkur nazariy qarashlar tarjimada grammatik o‘zgarishlar frazeologik birlikning tashqi shaklini emas, balki uning semantik va badiiy-pragmatik vazifasini saqlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Ingliz va o‘zbek tillari grammatik tizimlaridagi farqlar (so‘z tartibi, analitik-sintetik vositalar, predlog–kelishik munosabatlari) frazeologik birliklarni tarjimada qayta tuzishni taqozo etadi. Natijada grammatik moslashuv frazeologik birlikning

---

[24] Бархударов Л. С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода.–М: Международные отношения, 1975. – С. 190 – 231.

[25] Комиссаров В. Н. Теория перевода: лингвистические аспекты. – М: Высшая школа, 1990. – С. 149 – 152.

[26] Newmark P. *A Textbook of Translation*.–New York; London: Prentice Hall, 1988. – P. 81 – 91.

[27] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992. – P. 72 – 78.

[28] Vinay J., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation / translated and edited by J. C. Sager and M.– J. Hamel. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1995. – P. 36 – 38.

tashqi tuzilishida o‘zgarishlar keltirib chiqaradi, biroq uning semantik yadrosi saqlanadi.

1.2-jadval

Frazeologik birliklarning tarjimada grammatik-semantik moslashuv va transformatsiya modellari

Moslashuv modeli	Tavsif
Transpozitsiya	Grammatik kategoriyaning o‘zgarishi; masalan, predlogli birlikning fe’lli model orqali berilishi.
Modulyatsiya	Tasvir, nuqtayi nazar yoki metaforaning tarjimada madaniy modeliga mos holda qayta yaratilishi.
Frazeologik ekvivalentlash	Funksional jihatdan mos frazeologik birlikni tanlash.
Kompensatsiya	Asliyatda yo‘qolishi mumkin bo‘lgan ekspressivlikni tarjimada boshqa vositalar orqali tiklash.
Qisqartirish / kengaytirish	Tabiiylik, uslubiy moslik va badiiy ta’sir uchun ayrim komponentlarni tushirish yoki qo‘shimcha obraz bilan kengaytirish.
Semantik kompressiya	Asliyatdagi bir nechta ma’no komponentini tarjima tilida ixchamroq birlik orqali berish.
Qayta kodlash	Asliyatdagi obraz yoki harakatni tarjima tilining tabiiy ifoda vositalari orqali qayta ifodalash.

Teodor Drayzerning *“Sister Carrie”*[29] va *o‘zbekcha tarjimasi (Baxtiqaro Kerri)* asaridan olingan misollar asosida grammatik variantlanishning tahlilini jadval asosida ko‘rib chiqamiz:

1.3-jadval

Tarjima strategiyalari bo‘yicha tahlil

Asliyat	Tarjima	Strategiya	Natija
“…it was taken for granted that her position was lost.”	*“…fabrikadagi joyidan ayrilganligiga shak-shubha qilmasa bo‘lardi.”*	Transpozitsiya + mazmunni inkor shaklida qayta ifodalash	Shubhasiz deb qabul qilish mazmuni saqlangan. Majhul konstruksiya modal-inkorli tuzilishga o‘tgan.
“He was out of sorts physically, as well as disordered mentally…”	*“…Gerstvud ham ruhan, ham jismonan batamom tinchini yo‘qotgandi.”*	Transpozitsiya + kontekstual frazeologik muqobil	Jismoniy va ruhiy noxushlik umumiy bezovtalik orqali ifodalangan. “Batamom” komponenti holatning intensivligini kuchaytirgan.
“…to take her in tow.”	*“…qo‘yarda-qo‘ymay sudrab ketdi.”*	Modulyatsiya + ekspressiv kengaytirish	O‘ziga ergashtirish mazmuni saqlangan; tarjimada qat’iy undash ma’nosi kuchaygan.
They must be hard up (S.C.; 396-b.)	*Hozir ancha qiynalib qolishgan bo‘lsa ajab emas (B.K.; 366-b.)*	Frazema–erkin birikma modeli + tasviriy tarjima	Be hard up frazemasidagi “pulga muhtoj, moliyaviy tang ahvolda bo‘lmoq” ma’nosi erkin birikma orqali berilgan. Umumiy qiyinchilik mazmuni saqlangan, biroq moliyaviy tanglik semasi va frazeologik obrazlilik biroz kuchsizlangan.

Frazeologik birliklar tarjimasida grammatik va semantik moslashuv tillar tipologiyasidan kelib chiqadigan qonuniy jarayon bo‘lib, u frazeologik birlikning shaklini emas, balki mazmuni va badiiy ta’sirini tiklashga xizmat qiladi.

[29] Theodore Dreiser “Sister Carry” Grosset & Dunlap New York 1917

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Ingliz va o‘zbek badiiy tarjimalarda frazeologik birliklarning ifodalanishi: ekvivalentlik va variativlik”** tadqiq qilingan. Mazkur bob uchta paragrafdan iborat Frazemalarni tarjima qilishda eng muhim jihat mazmunni saqlagan holda muqobil ifodani topishdir. “*Frazemalar birliklarning tarjimada mazmuniy ekvivalentligi va muqobil variantlar va kompensatsiya”* ikkinchi bobning birinchi paragrafida tahlil qilingan. Badiiy asar tarjimasida frazeologik birliklarning muqobil variantlardan foydalanish strategiyasi eng nozik va murakkab yondashuvlardan biri hisoblanadi. Chunki bunda tarjimon manba tilidagi frazemani so‘zma-so‘z emas, balki ma’no, ifoda uslubi va madaniy moslikka tayangan holda tarjima qiladi. Bu esa frazemaning asl ma’nosini buzmasdan, tarjima tilida tabiiy va ta’sirchan chiqishini ta’minlaydi.

Bu faslda frazeologik birliklarning mazmuniy ekvivalentligi, muqobil variantlari va kompensatsion ifodalanish usullari tadqiq qilindi. Nazariy tayanch sifatida P. Newmarkning funksional, madaniy va tavsifiy ekvivalent haqidagi qarashlari, V. Komissarovning frazeologik birliklar tarjimasida obrazli, emotsional, stilistik va milliy-madaniy komponentlarni hisobga olishga oid yondashuvi, M.Bakerning idiomalarni tarjima qilish strategiyalari hamda J.Mundayning tarjima nazariyasidagi ekvivalentlik masalasiga doir umumiy qarashlari asos qilib olindi[30].

2.1-jadval

Frazeologik birliklarning muqobil tarjima variantlari

Asliyat (Sister Carrie)	**Tarjima (Baxtiqaro Kerri)**	**Tahlil turi**
bent a willing ear	*jon-jon deb quloq tutardi*	Frazema–frazema; somatik obraz saqlangan muqobil. Istak ma’nosi grammatik jihatdan qayta ifodalangan.
had struck a deep chord	*qiz qalbining mungli torini chertib qo‘yganligini*	Frazema–frazema; musiqiy obrazga tayangan muqobil. Konnotativ aniqlashtirish mavjud.
was at the mercy of any flirt	*...xotin-qizlar tuzog‘iga ilindim*	Frazema–frazema; kontekstual muqobil. Metaforik modulyatsiya va grammatik transpozitsiya.
driven to a corner	*boshi berk ko‘chaga kirib qolganidan*	Frazema–frazema; funksional jihatdan yaqin muqobil. Fazoviy obraz almashtirilgan.
get the upper hand	*meni qo‘lga olmoqchimisan?*	Frazema–frazema; kontekstual muqobil. Ustunlik va bo‘ysundirish ma’nolari muvofiqlashtirilgan.

Tarjimada frazeologik birliklarning muqobil variantlaridan foydalanish: frazeologik birlikni jonli, tabiiy va madaniyatga mos tarzda yetkazish imkonini beradi, tarjimaning ta’sirchanligini oshiradi, o‘quvchida asliyatda berilgan kayfiyat va ohang taassurotini uyg‘otadi.

Biroq bu strategiya tarjimondan nafaqat til bilimini, balki chuqur madaniy kompetensiya va ijodiy yondashuvni ham talab qiladi. Faslda mazmuniy ekvivalentlik frazeologik tarjimaning asosiy mezoni ekanligi asoslandi.

[30] Newmark P. A Textbook of Translation. – New York; London: Prentice Hall, 1988.–P.81–91; Комиссаров В. Н. Теория перевода: лингвистические аспекты. –М: Высшая школа, 1990. – С. 149 – 152; Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2011. – P.75 – 86; Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. – 4th ed. – London; New York: Routledge, 2016. – P. 60 – 90.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida “Frazeologik birliklarning lingvokulturologik ifodalanishi va badiiy tarjimada madaniy adaptatsiya” deb nomlanib, unda frazeologik birliklarning lingvomadaniy ifodalanishi hamda badiiy tarjimada madaniy adaptatsiya masalalari tahlil qilindi. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy, ya’ni lingvokulturologik tahlili so‘nggi yillarda tarjima nazariyasida alohida o‘rin egallamoqda. Frazeologik birliklar nafaqat til hodisasi, balki xalq tafakkuri, madaniy qadriyatlari, mentaliteti va tarixiy tajribasining ham ifodasi hisoblanadi. Tahlilda Ye. Vereshagin va V. Kostomarov tomonidan ishlab chiqilgan lingvokulturologik konsepsiya, shuningdek, A. Kuninning frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasiga oid qarashlari nazariy asos sifatida qo‘llanildi[31].

2.2-jadval

Lingvokulturologik yondashuv

Asliyat (Sister Carrie)	Tarjima (Baxtiqaro Kerri)	Tahlil turi
There was something even richer... running as a hidden strain in her mind	*G‘ujg‘on o‘ynayotgan xayollari olamiga qandaydir pinhoniy va shirin o‘ylar ham kelardi*	Lingvokulturologik moslashtirish
His face was expanding into a smile	*Og‘zining tanobi qochib*	Frazeologik almashtirish
fell short	*Qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga urib qo‘ygan*	Funksional yaqin ekvivalent + pragmatik kuchayish
She was enlivened and suffused with a glow	*Ochilib-sochilib ketganidan nur yog‘ilayotganday bo‘lardi*	Metaforik kengaytirish
came home in the sunniest mood	*Terisiga sig‘maydigan darajada xursand*	Frazeologik almashtirish

Berilgan misollar dramatizm va jonli obrazlar bilan boyitilgan, milliy obrazlar – maqollar, xalq iboralari, jonli tasviriylik kiritilgan. Mahalliy konnotatsiya o‘zbek o‘quvchisiga tabiiylik va yaqinlikni ta’minlab bergan.

“Frazeologik sinonimiya va leksik-sinonimik ifodalanish (parafraza, tasviriy vosita)” ikkinchi bobning uchinchi paragrafida yoritilgan bo‘lib, frazeologik birliklarni boshqa tildagi sinonimik yoki kontekstga mos leksik vositalar bilan tarjima qilish, bu tarjimada semantik moslikni ta’minlash bilan birga, madaniy moslashuv va stilistik uyg‘unlikka ham xizmat qiladi. Tahlilga tortilgan misollarda frazeologik birliklarning leksemalar yoki parafrastik birliklar bilan holatlar mavjud.

Frazeologik birliklarni oddiy so‘zlar orqali tarjima qilish usuli, ayniqsa, frazeologik ekvivalent to‘g‘ridan-to‘g‘ri mavjud bo‘lmaganda foydalaniladi.

Bunda tarjimon: leksik va madaniy tafovutlarni hisobga oladi; umumiy konnotatsiyani saqlaydi; iboraning asl ma’nosini, emotsional ohangini buzmaslikka harakat qiladi.

[31] Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: три лингвострановедческие концепции: лексического фона, рече–поведенческих тактик и сапиентемы / под ред. Ю. С. Степанова.–М: Индрик, 2005. – 1037 с.; Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – 2–е изд., перераб. – Москва: Высшая школа; Дубна: Феникс, 1996. – 381 с.

2.3-jadval

Leksik-sinonimik ifodalanish turlari

Ifodalanish turi	Qisqa izoh	Tarjimadagi tipik natija
Parafraza (izohli bayon)	Frazeologizm ma’nosi so‘z birikmasi bilan ochiladi	Mazmun aniq, lekin ixchamlik kamayadi
Oddiy leksema bilan berish	Iboraning ma’nosi bitta so‘z bilan ifodalanadi	Tez va tabiiy, lekin obraz yo‘qolishi mumkin
Tasviriy vosita (deskriptiv obraz)	Frazeologizm o‘rniga kontekstga mos tasvir kiritiladi	Badiiylik saqlanadi/kuchayadi, ammo “frazeologik” shakl almashadi
Frazeologik sinonim mavjud bo‘lsa-da, leksemaga o‘tish	Tarjimon frazemani emas, leksik ifodani tanlaydi	Ma’no saqlanadi, lekin ekvivalent “kuch” pasayishi mumkin

2.4-jadval

Frazeologik sinonimiya va leksik-sinonimik ifodalanishi

